



UO'K: 81'42:004.738.5

**Zilola K. XAYITBOYEVA,**

*Mustaqil tadqiqotchi, Urganch davlat universiteti, Urganch, O'zbekiston*

*E-mail: zilolaxayitboyeva893@gmail.com, ORCID: 0009-0009-9868-3033*

*Dotsenti, PhD S.Ruzmetov taqrizi asosida*

## INTERNET DISKURSINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy tilshunoslikda diskurs va internet diskursi tushunchalarining shakllanishi hamda rivojlanishining nazariy asoslari tahlil qilingan. Xorijiy, rus va o'zbek tilshunoslarining mazkur sohaga oid ilmiy yondashuvlari qiyosiy-analitik nuqtayi nazardan o'rganilib, internet diskursining asosiy lingvistik va pragmatik xususiyatlari yoritilgan. Internet diskursiga xos multimodallik, interaktivlik, gibridlik, intertekstuallik, anonimlik va lingvomadaniy xususiyatlarning raqamli muloqotdagi o'zini asoslab berilgan. Shuningdek, internet muloqotining til tizimi, kommunikativ strategiyalar va milliy-madaniy qadriyatlar transformatsiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Diskurs, internet diskursi, muloqot, multimodallik, interaktivlik, gibridlik, intertekstuallik.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-ДИСКУРСА

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы формирования и развития понятий дискурса и интернет-дискурса в современной лингвистике. В сравнительно-аналитическом аспекте рассмотрены особенности подходов зарубежных, российских и узбекских лингвистов к данному интернет-дискурсу, освещены основные лингвистические и прагматические характеристики интернет-дискурса. Обоснована роль принципов мультимодальности, интерактивности, гибридности, интертекстуальности, анонимности и лингвокультурных особенностей в цифровой коммуникации. Помимо этого, проанализировано влияние интернет-коммуникации на языковую систему, трансформацию коммуникативных стратегий и национально-культурных ценностей.

**Ключевые слова:** Дискурс, интернет-дискурс, мuloqot, мультимодальность, интерактивность, гибридность, интертекстуальность.

## LINGUISTIC FEATURES AND CURRENT DIRECTIONS IN INTERNET DISCOURSE RESEARCH

Annoation

This article analyzes the theoretical foundations underlying the formation and development of the concepts of discourse and internet discourse in modern linguistics. From a comparative-analytical perspective, it examines the specific approaches of foreign, Russian, and Uzbek linguists to internet discourse, highlighting its primary linguistic and pragmatic characteristics. The study substantiates the role of the principles of multimodality, interactivity, hybridity, intertextuality, anonymity, and linguocultural features in digital communication. Furthermore, it analyzes the impact of internet communication on the language system, as well as the transformation of communicative strategies and national-cultural values.

**Key words:** Discourse, internet discourse, communication, multimodality, interactivity, hybridity, intertextuality.

**Kirish.** So'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda "diskurs" tushunchasi eng faol qo'llanilayotgan ilmiy kategoriyalardan biriga aylandi. Bugungi kunda til hodisalarini faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki inson omili, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy muhit va madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli antropotsentrik paradigma asosida shakllangan zamonaviy lingvistika doirasida diskurs nazariyasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, kommunikatsion texnologiyalarning jadal taraqqiyoti natijasida internet diskursi zamonaviy kommunikativ jarayonlarning muhim shakliga aylandi.

So'nggi yillarda internet diskursiga oid tadqiqotlar sezilarli darajada kengaygan bo'lsa-da, mazkur hodisaning nazariy talqinlari hanuzgacha yagona ilmiy konsepsiyaga ega emas. Turli ilmiy maktablarda internet diskursining mohiyati, uning diskurs tizimidagi o'zini, kommunikativ chegaralari va lingvokulturologik xususiyatlari turlicha talqin qilinmoqda. Ayniqsa, internet kommunikatsiyasining sun'iy intellekt, multimodal platformalar hamda algoritmik boshqaruv bilan

boyib borishi internet diskursining yangi nazariy modelini ishlab chiqishni talab etmoqda. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Ushbu maqola nazariy yo'nalishga ega bo'lib, unda Z. Harris, T. Van Deyk, N.D.Arutyunova, V.I.Karasik, Y.S.Kubryakova, D.Cristal, S.Herring, F.Yus, O.V.Lutovinova, Sh.Safarov, N.Y.Abdunazarova kabi olimlarning diskurs hamda internet diskursi nazariyasiga oid ilmiy yondashuvlari tahlil qilinib, ularning qarashlari qiyosiy-analitik nuqtayi nazardan umumlashtiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy, diskurs tahlili, pragmatolingvistik hamda lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi. Internet diskursining asosiy xususiyatlari, jumladan, multimodallik, gibridlik, intertekstuallik, anonimlik, interaktivlik kabi belgilar zamonaviy diskurs nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Diskurs tushunchasi tilshunoslikda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo'llanila boshlangan, biroq u ilmiy maktablar va olimlar

tomonidan tavsiflashga urinishlar bo'lishiga qaramasdan, uning umume'tirof qilingan talqini mavjud emas. 1952-yilda diskursni tuzilishiga ko'ra tahliliga bog'langan maqolasida Zellig Harris uni "gaplarning o'zaro bog'langan tizimi" sifatida talqin qilib, "matndan yuqori birlik" tarzida tavsiflagan [3]. Hozirgi kunda diskursni obyekt sifatida tadqiq qilgan mumtoz olimlar qatorida T. van Deykning nomi alohida tilga olinadi. Uning oldingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarining mantiqiy umumlashmasi sifatida ta'kidlanadigan "Discourse and Context: A Sociocognitive Approach" nomli ilmiy asarida u diskursni nisbatan keng talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, diskurs faqat til birliklari yig'indisi emas, balki murakkab kommunikativ hodisadir [5]. Ko'rinib turibdiki, Yevropa tilshunosligida diskurs tushunchasi dastlab matnning formal-strukturaviy xususiyatlarini izohlash doirasida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik uning mazmuni sezilarli darajada kengaydi. Agar Z.Harris diskursni asosan sintaktik va matnlaro bog'lanish nuqtayi nazaridan tavsiflagan bo'lsa, T. van Deyk uni kognitiv, ijtimoiy va kommunikativ omillar bilan uzviy bog'liq murakkab tizim sifatida talqin qildi. Demak, diskurs haqidagi ilmiy qarashlar evolyutsiyasi uning faqat lisoniy hodisa emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ muhitning integral mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Rus tilshunosligida ham diskurs nazariyasiga oid tadqiqotlar salmoqlikdir. Jumladan, N.D.Arutyunova diskursni "hayotni o'zida mujassam qilgan matn" deya talqin qilib, uning asosiy xususiyati kommunikativ jarayon bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [10.]. V.I.Karasik esa uni ijtimoiy ong, kommunikativ vaziyat va nutqiy faoliyat bilan bog'liq ko'p qatlamli hodisa sifatida baholaydi [11]. Shunday qilib, rus tilshunosligida diskurs faqat matnning lisoniy xususiyatlari bilan cheklanmay, balki uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillar bilan uzviy bog'liq kompleks kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinadi.

O'zbek tilshunosligida ham diskurs masalasi so'nggi yillarda faol tadqiq etila boshladi. Xususan, N.Abdunazarova diskursni pragmatik va kommunikativ jarayon sifatida izohlab, uning tarkibiga adresant, adresat, kommunikativ maqsad va ijtimoiy vaziyat kabi omillarni kiritadi [8]. O.U.Ablakulova esa diskursni fanlararo hodisa sifatida talqin qilib, uning psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan bog'liqligini ko'rsatadi [9].

Diskurs tushunchasi matn tushunchasidan ancha keng hisoblanadi. Matn ko'proq tayyor va yakunlangan mahsulot sifatida qaralsa, diskurs jarayon xarakteriga ega bo'ladi. Bu haqda Y.S.Kubryakova diskursni "kommunikativ faoliyatning harakatdagi shakli" deb baholaydi [12]. Demak, diskurs til birliklarining oddiy yig'indisi emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy tajriba va kommunikativ maqsad bilan bog'liq murakkab tizimdir.

Shunday qilib, xorijiy olimlar internet diskursini asosan kognitiv-kommunikativ hodisa sifatida ko'rsalar, rus tilshunosligida uning institutsional xususiyatlari ko'proq tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida esa asosan pragmatik jihatlar o'rganilgan. Ushbu keltirilgan nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, diskurs tushunchasining mazmuni jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar ta'sirida muntazam kengayib bormoqda. Muloqot shakllarining raqamlashuvi natijasida an'anaviy nutqiy muloqot bilan bir qatorda virtual muloqot muhiti ham mustaqil diskursiv makon sifatida shakllandi. Bu esa diskurs nazariyasining yangi yo'nalishi – internet diskursining vujudga kelishiga asos bo'lib, uning lingvistik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini alohida tadqiq qilish zarurati yuzaga keltirdi.

Fikrimizcha, internet diskursini faqat diskurs nazariyasining navbatdagi bosqichi sifatida emas, balki raqamli muhitda shakllangan mustaqil kommunikativ tizim sifatida baholash maqsadga muvofiq. Chunki mazkur muhitda verbal va nonverbal kodlar, multimodal vositalar hamda algoritmlar orqali boshqariladigan muloqot bir vaqtning o'zida amal qiladi. Bu xususiyatlar internet diskursini an'anaviy institutsional yoki maishiy diskurs turlaridan farqlovchi muhim mezon hisoblanadi.

Internet diskursi evolyutsiyasini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin:

- elektron pochta va forumlar bosqichi;
- ijtimoiy tarmoqlar bosqichi;
- sun'iy intellekt va multimodal muloqot bosqichi.

Har bir bosqich internet muloqotida yangi janrlar va yangi lingvistik vositalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Internet muloqotining rivojlanishi natijasida diskursning yangi shakli – internet diskursi yuzaga keldi. Internet diskursi virtual muloqotsharoitida amalga oshadigan yozma va multimodal muloqot tizimini anglatadi. Ushbu tizim matn bilan bir qatorda emoji (his-tuyg'ularni, narsalarni yoki harakatlarni ifodalash uchun ishlatiladigan piktogramma), gif (animatsion piktogramma), audio, video va boshqa grafik vositalar ham faol qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. D.Crystal internet tilini "tilning yangi elektron shakli" deb baholaydi va uning asosiy belgilariga tezkorlik, interaktivlik hamda tejamkorlikni kiritadi [1; 17-b.]. Tejamkorlik so'zlarni qisqartirish (vaqtni tejash bilan bevosita bog'liq), butun bir gapni tegishli emoji yordamida yetkazish va shu kabi lisoniy vositalar iqtisod qilinishi tarzida tushuniladi.

Internet diskursi an'anaviy yozma va og'zaki nutqdan o'zining interaktivligi bilan farqlanadi. Unda muloqotreal vaqt rejimida amalga oshadi, foydalanuvchilar esa bir vaqtning o'zida ham adresant, ham adresat vazifasini bajarishi mumkin. Bu esa virtual muloqotda yangi nutqiy strategiyalar va kommunikativ modellarning shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon faol rivojlanish va o'zgarishda davom qilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarning rivojlanishi internet diskursining ommaviylashuviga sabab bo'ldi. Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp kabi platformalarda insonlarning kundalik muloqoti faol amalga oshiriladi. Shu bois internet diskursi nafaqat lingvistika, balki sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslikning ham tadqiqot obyektiga aylanib, ushbu sohalar integratsiyasini yanada jadallashtirishga sabab bo'ldi.

Internet diskursining muhim jihatlaridan biri uning emosional-ekspressiv xarakteri hisoblanadi. Virtual muloqotda foydalanuvchilar o'z hissiyotlarini ifodalash uchun emoji, stiker va qisqartmalardan keng foydalanadilar. Bu esa yozma nutqning og'zaki muloqotga yaqinlashuviga sabab bo'lmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy internet muloqotida ixchamlik tamoyili ustuvor hisoblanadi. Natijada til birliklarining qisqargan shakllari, abbreviaturalar va internet slengiga oid birliklar nutqda faol qo'llanila boshladi [2; 56-b.]. Masalan, ingliz tilidagi LOL (Laughing Out Loud – Qattiq, ovoz chiqarib kulish), IMHO (In My Humble Opinion – Mening kamtarona fikrimcha) kabi qisqartmalar (internet-akronimlar) virtual muloqotning odatiy unsurlariga aylangan. E'tiborlisi shundaki, D.Kristalning ushbu iqtibos keltirilgan ilmiy-ommabop asarining nomi ham qiziqligida. Muallif uni kinoyaviy tarzda nomlagan: The Gr8 Db8 (The Great Debate).

Internet diskursining ahamiyatli shundaki, u milliy-madaniy xususiyatlarni ham o'zida aks ettiradi. Har bir xalq virtual muloqotda o'zining kommunikativ etiketi, murojaat shakllari va madaniy qadriyatlarini namoyon qiladi. Shu sababli internet diskursini lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Internet diskursining shakllanishi axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida internetning global kommunikativ maydonga aylanishi natijasida insonlarning kundalik muloqoti sezilarli darajada virtual shaklga o'tdi. Bu jarayon tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, yangi kommunikativ birliklar va nutqiy modellarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu sababli internet diskursi zamonaviy lingvistikaning eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Bu hodisa tildagi siljishlarni tilshunoslar kabi payqaydigan qiziqchilarning ham diqqat markaziadir. Jumladan, taniqli o'zbek qiziqchisi Avaz Oxun yoshlarning telefon orqali muloqotini tanqid qilib, ular (adresat va adresant) uchun "4" – "ch", "w" esa "sh" harflari o'rnida qo'llanilishiga e'tibor qaratadi (o'zbek tilining kirill alifbosidagi harflarga shaklan o'xshagani sababli).

Internet diskursining asosiy belgilaridan biri uning gibril xarakterga egaligidir. Ya'ni virtual muloqotda yozma va og'zaki nutq xususiyatlari birlashadi. D.Crystal internet tilini "written speech" ("yozma ko'rinishdagi og'zaki nutq") deb tavsiflab, unda yozma shakl saqlansa-da, kommunikativ tezkorlik va emotsionallik jihatidan og'zaki nutqqa yaqinlik mavjudligini ta'kidlaydi [1; 51-b.]. Bunday gibril virtual muloqotda sintaktik qurilmalarning soddalashuvi, so'zlashuv uslubiga xos leksikaning faollashuvi, shuningdek, intonatsiya va mimika vazifasini bajaruvchi emoji, gif va boshqa vizual elementlarning keng qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan internet diskursi yozma va og'zaki muloqot o'rtasidagi chegaralarni nisbatan shartli holatga keltirib, ularning funksional xususiyatlarini yagona kommunikativ makonda uyg'unlashtiradi.

Internet diskursi uchun xos bo'lgan jihatlaridan yana biri intertekstuallikdir. Virtual muloqotda foydalanuvchilar boshqa matnlarga havola beradi, mem, gif, sitata (matn parchasi) va repostlardan (ulashish) foydalanadi. Natijada matnlararo bog'liqlik kuchayadi va kommunikativ maydon yanada kengayadi. T. van Deyk bunday holatni zamonaviy diskursning muhim belgilaridan biri sifatida baholaydi [6]. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, sharhlar va internet tabriklarida yaqqol ko'rinadi: foydalanuvchi muayyan matnни qayta ulashish, mashhur iboradan foydalanish yoki mem orqali umumiy madaniy xotiraga murojaat qiladi.

Internet diskursi tilning leksik tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet slengi, abbreviaturalar va yangi so'z yasash modellari virtual muloqotning ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelayotgan birliklar ko'plab tillarning internet muloqotida faol ishlatilmoqda. Masalan, "like", "post", "blog", "story", "chat" kabi birliklar xalqaro xarakter kasb etgan. Mazkur tendensiya raqamli muloqotning keyingi rivojlanish bosqichlarida yanada kuchayishi mumkin. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalari, avtomatik tarjima tizimlari va global ijtimoiy platformalarning rivojlanishi natijasida yangi gibril leksik birliklar hamda xalqaro internet terminlarining soni ortishi kutilmoqda. Bu esa milliy tillarning leksik tarkibida o'zlashmalarning ko'payishi, ularning semantik transformatsiyasi va me'yoriy maqomini belgilash bilan bog'liq tadqiqotlarni yanada dolzarblashtiradi.

Internet diskursining til tizimiga ta'siri leksik sath bilangina cheklanib qolmaydi. Virtual muloqot sintaktik va stilistik qurilmalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, qisqa gaplar, fragmentar sintaksis, emotsional undovlar va qrafon elementlari internet nutqining odatiy belgilariga aylangan. Bu esa yozma nutqning og'zaki muloqotga yaqinlashayotganini ko'rsatadi. Internet muloqoti til me'yorlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual muloqotda ko'pincha punktuatsion qoidalar soddalashtiriladi, sintaktik strukturalar qisqaradi va og'zaki nutqqa

xos birliklar faol qo'llaniladi. Ba'zi tadqiqotchilar bu holatni tilning degradatsiyasi sifatida baholasa, boshqalar uni kommunikativ iqtisod tamoyili bilan izohlaydilar.

Rus tilshunosligida internet diskursi keyingi yillarda dolzarb muammolardan biriga aylangan. Uning lingvistik xususiyatlari A.A.Kibrik, M.Yu.Sidorova, O.V.Lutovinova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida internet diskursi yo'nalishida ko'lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Sh.Safarov diskursning pragmatik tabiatiga e'tibor qaratib, uni inson faoliyati bilan bog'liq kommunikativ hodisa sifatida baholaydi [14; 40-42-b.]. Bu qarash internet muloqotini o'rganishda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Internet diskursining shakllanishi zamonaviy jamiyatdagi kommunikativ ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ham bog'liqdir. Axborot almashishning tezlashuvi va global muloqot vositalarining rivojlanishi natijasida insonlarning kundalik muloqoti virtual makonga ko'chdi. Shu sababli internet muloqoti tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, yangi diskursiv shakllarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda virtual muloqot jamiyatning deyarli barcha sohalariga kirib borganligi sababli internet diskursi keng qamrovli tadqiqot obyekti sifatida aylandi.

Xorijiy tilshunoslikda internet diskursining kognitiv, pragmatik va multimodal jihatlarini keng tadqiq etilgan bo'lsa, rus tilshunosligida uning institutsional va kommunikativ xususiyatlari chuqur o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida esa asosan diskurs nazariyasining umumiy masalalari yoritilgan bo'lib, internet diskursining lingvokulturologik va pragmatik tavsifi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, diskurs tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda formal-strukturaviy yondashuvdan kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy yondashuvlarga bo'lgan uzluksiz ilmiy evolyutsiyani bosib o'tgan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mazkur tushunchaning amaliy qo'llanish doirasini yanada kengaytirib, internet diskursini mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllantirdi.

Internet diskursi zamonaviy lingvistikaning eng dinamik rivojlanayotgan obyektlaridan biri hisoblanadi. Uning nazariy evolyutsiyasi klassik diskurs nazariyasidan multimodal va algoritmik kommunikatsiya konsepsiyasigacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari internet diskursining lingvistik tabiatini yanada aniqroq tavsiflash, uning funksional tasnifini ishlab chiqish hamda zamonaviy raqamli kommunikatsiyaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi. Olingan xulosalar internet lingvistikasi, pragmatik lingvistik va lingvokulturologiyaning keyingi tadqiqotlari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Crystal D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 264 p.
2. Crystal D. Txtng: The Gr8 Db8. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 256 p.
3. Harris Z. Discourse Analysis // Language. – 1952. – Vol. 28. – P. 1–30.
4. Herring S. Interactional Coherence in CMC // Journal of Computer-Mediated Communication. – 1999. – Vol. 4. – P. 1–19.
5. Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 283 p.
6. Van Dijk T.A. Ideology and Discourse. – Barcelona, 2004. – P. 379–407.
7. Yus F. Cyberpragmatics: Internet-Mediated Communication in Context. – Amsterdam: John Benjamins, 2011. – 353 p.
8. Абдуназарова Н.Ю. Дискурс ва унинг лингвистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2018. – № 4. – Б. 48–52.
9. Аблакулова О.У. Дискурс тахлилининг назарий масалалари. – Тошкент, 2020.
10. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – С. 136–137.
11. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
12. Кубрякова Е.С. О понятии дискурса и дискурсивного анализа // Дискурс, речь, речевая деятельность. – Москва, 2000. – С. 7–25.
13. Сафаров Ш. Прагматическая лингвистика. – Тошкент, 2008. – 318 б.